

O'ZBEK MILLIY TA'LIM AN'ANALARI VA RAQAMLI TA'LIM MODELLARI: MUVOFIQLIK VA ZIDDIYAT MASALALARI

Rahimova Dildora Qodirjonovna

p. f.f.d., (PhD), dotsent

Biznes va fan universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrası

E-mail: d.rahimova@bsu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy ta'lim an'analari-ustoz-shogird munosabati, og'zaki bilim uzatish va jamoaviy o'rganish-bilan zamonaviy raqamli ta'lim modellari o'rtasidagi muvofiqlik va ziddiyat masalalari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Milliy epistemik an'analarning raqamli muhitdagi imkoniyatlari va cheklovlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy ta'lim an'analari, ustoz-shogird munosabati, raqamli ta'lim, epistemologiya, raqamli transformatsiya, ta'lim modeli.

УЗБЕКИСТАНСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ И ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МОДЕЛИ: ВОПРОСЫ СОВМЕСТИМОСТИ И КОНФЛИКТОВ

Аннотация: В данной статье проводится теоретический анализ проблем совместимости и противоречий между традиционными узбекскими образовательными традициями-отношениями учитель-ученик, устной передачей знаний и коллективным обучением-и современными моделями цифрового образования.

Ключевые слова: национальные образовательные традиции, отношения учитель-ученик, цифровое образование, эпистемология, цифровая трансформация, модель образования.

UZBEKISTAN NATIONAL EDUCATIONAL TRADITIONS AND DIGITAL EDUCATIONAL MODELS: ISSUES OF COMPATIBILITY AND CONFLICTS

Abstract: This article theoretically analyzes issues of compatibility and contradiction between Uzbek national educational traditions-the teacher-student relationship, oral transmission of knowledge, and collective learning-and modern digital education models.

Keywords: national educational traditions, teacher-student relationship, digital education, epistemology, digital transformation, educational model.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimlarini raqamlashtirish global tendensiyaga aylandi. Ko'plab mamlakatlar sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli resurslarni oliy ta'lim jarayoniga faol tatbiq etmoqda. O'zbekiston ham bu

jarayondan mustasno emas: «Yangi O'zbekiston» taraqqiyot strategiyasi va tegishli davlat dasturlari ta'limni raqamlashtirish yo'nalishini ustuvor vazifa sifatida belgilagan.

Biroq raqamli transformatsiya jarayonida ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan muhim savol mavjud: yangi texnologik modellar milliy ta'lim an'analari bilan qay darajada muvofiq keladi? O'zbek pedagogikasining asrlar mobaynida shakllangan o'ziga xos xususiyatlari-ustoz-shogird munosabatining ma'naviy-axloqiy mazmuni, og'zaki bilim uzatish an'anasi, jamoaviy o'rganish madaniyati va bilimning insonparvarlik o'lchami-bularning barchasi zamonaviy raqamli modellar bilan qanday munosabatda bo'ladi?

Bu savol faqat akademik qiziqish emas-u amaliy ahamiyatga ega. Agar raqamli ta'lim modellari milliy an'analari bilan o'ylanmagan holda joriy etilsa, ikki xil xavf tug'iladi. Birinchisi-texnologik jihatdan taraqqiy etgan, lekin milliy ildizlardan uzilgan ta'lim tizimi shakllanishi mumkin. Ikkinchisi-an'anaviy qadriyatlarni saqlamoqchi bo'lib, raqamli imkoniyatlardan to'liq foydalana olmay qolish xavfi. Muvozanatli yo'lni topish-bu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning maqsadi: o'zbek milliy ta'lim an'analari va raqamli ta'lim modellari o'rtasidagi muvofiqlik va ziddiyat nuqtalarini nazariy jihatdan aniqlash hamda ularning integratsiyasi uchun metodologik asos ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari: -o'zbek milliy ta'lim an'alarining asosiy xususiyatlarini va epistemik mohiyatini tahlil qilish; - zamonaviy raqamli ta'lim modellari asosiy tamoyillari va xususiyatlarini ko'rib chiqish; - ikki model o'rtasidagi muvofiqlik va ziddiyat nuqtalarini aniqlash; - milliy an'analari va raqamli texnologiyalarning muvozanatli integratsiyasi uchun nazariy model taklif etish.

O'zbek milliy ta'lim an'analari: tarixiy va epistemologik tahlili shuni ko'rsatadiki o'zbek milliy pedagogikasi o'zining boy tarixiy merosiga ega. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda yashab ijod etgan Al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlar ta'lim va bilim haqida chuqur g'oyalar ishlab chiqdilar. Al-Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning

ustuvorligi, bilimning jamiyat uchun xizmat qilish vazifasi va ustoz-shogird munosabatining ma'naviy asoslari batafsil bayon etilgan.

Ibn Sino (Avitsenna) esa pedagogik fikr tarixida alohida o'rin tutadi. Uning ta'limotida bilim egallash jarayoni nafaqat intellektual, balki ma'naviy-axloqiy rivojlanish bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi. «Donishnoma» va «Tib qonunlari» asarlarida ta'lim usullari, ustoz vazifasi va o'quvchi motivatsiyasi haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Xususan, uning «bilimni amalda sinash» tamoyili bugungi konstruktivizm nazariyasi bilan uyg'un keladi.

O'zbek milliy ta'lim an'anasining markazida ustoz-shogird munosabati turadi. Bu munosabat G'arb an'anasidagi «o'qituvchi-o'quvchi» munosabatidan tubdan farq qiladi. Ustoz nafaqat bilim uzatuvchi-u hayot yo'lini ko'rsatuvchi, axloqiy namuna bo'luvchi va shogirdning butun shaxsiyatini shakllantirishda mas'ul bo'lgan insondir. Shogird esa faqat bilim egallashga emas, ustozning xulqini, dunyoqarashini va kasb mahoratini o'zlashtirishga intiladi. Bu munosabat ko'p yillik uzluksiz jarayon bo'lib, sifatli va chuqur bilim egallashning asosiy yo'li sifatida qaralgan.

Og'zaki bilim uzatish an'anasi ham o'zbek pedagogikasida alohida o'rin tutadi. Madrasalarda ustoz o'z bilimlarini shogirdlarga asosan og'zaki tarzda-hikoat, misol va o'zining shaxsiy tajribasi orqali-uzatgan. Yozma manbalar muhim bo'lsa-da, ular bilimni «jonlantiruvchi» ustozning sharhisiz to'liq tushunilmas deb hisoblangan. Bu yondashuv bilimni «jonli» va «o'lik» ga ajratadi: kitobdagi bilim «o'lik» bilim, ustad sharhi bilan boyitilgan bilim esa «jonli» bilim sanalgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy raqamli ta'lim modellari bir necha asosiy paradigmaga asoslanadi. Konnektivizm nazariyasi (Siemens, 2005) raqamli muhitda bilimning tarmoqlar orqali taqsimlanishini va o'rganishning asosan aloqalar o'rnatish orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi. Bu nazariyaga ko'ra, bilim muayyan insonda emas, balki insonlar, texnologiyalar va tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar tarmog'ida joylashadi. Konnektivizm raqamli ta'limning eng keng tarqalgan nazariy asoslaridan biri bo'lib, MOOC platformalari va ijtimoiy o'rganish muhitlari uning amaliy ko'rinishi sifatida qaraladi.

Ochiq ta'lim resurslari (Open Educational Resources-OER) harakati bilimga ommaviy va bepul kirishni ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. UNESCO tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bu harakat ta'limning demokratlashuvini va bilimga geografik, iqtisodiy yoki ijtimoiy to'siqlardan qat'i nazar kirish imkoniyatini kengaytirishni asosiy qadriyat sifatida belgilaydi. Raqamli ta'lim modellarining aksariyati OER tamoyillariga tayanadi.

Adaptiv ta'lim tizimlari (Adaptive Learning Systems) sun'iy intellekt yordamida har bir o'quvchining o'quv yo'lini shaxsiylashtirishni amalga oshiradi. Bu tizimlar o'quvchining bilim darajasini real vaqtda kuzatib, unga eng mos topshiriq va materiallarni taqdim etadi. Knewton, Carnegie Learning va DreamBox kabi platformalar bu yondashuvning amaliy namunalari hisoblanadi. Adaptiv ta'lim tizimlari an'anaviy sinfxona ta'limining eng katta kamchiligi-barcha o'quvchilarga bir xil sur'atda o'qitish-ni bartaraf etishga da'vo qiladi.

Geymifikatsiya (gamification)-o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish-raqamli ta'limning yana bir muhim yo'nalishi. Ball to'plash, darajalar o'tish, mukofotlar va reyting tizimlari o'quvchi motivatsiyasini oshirish uchun keng qo'llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, to'g'ri ishlatilgan geymifikatsiya o'quvchilarning ta'limga qiziqishini 48 foizgacha oshirishi mumkin (Hamari et al., 2014). Biroq bu yondashuv ham o'z tanqidchilariga ega: tashqi motivatsiya (mukofot) ichki motivatsiyani (bilimga haqiqiy qiziqish) siqib chiqarishi mumkin.

Muvofiqlik nuqtalari o'zbek milliy ta'lim an'analari va raqamli ta'lim modellari o'rtasida bir qator muhim muvofiqlik nuqtalarini aniqlash mumkin. Birinchi muvofiqlik-bilimga intilish qadriyati. O'zbek milliy pedagogikasida «ilm olish» oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Hadisda ham «Ilm Xitoyda bo'lsa ham boring» deyilgan-bu bilimga geografik va madaniy chegaralar ortidagi intilishni ifodalaydi. Raqamli ta'lim modellari esa bilimga kirishni real ma'noda cheklovsiz qiladi: dunyo universitetlarining eng yaxshi kurslari, global ilmiy maqolalar va ko'p tildagi resurslar bugun O'zbekistonning eng chekka hududidagi talabaga ham ochiq. Bu

jihtdan raqamli ta'lim o'zbek milliy pedagogikasining «cheksiz ilm» ideali bilan uyg'un keladi.

Ikkinchi muvofiqlik-jamoaviy o'rganish qadriyati. O'zbek pedagogikasida jamoaviy muhokama, birga o'ylash va o'rtoqlardan o'rganish kuchli an'anaga ega. Madrasalarda «munozara»-talabalar o'rtasidagi ilmiy bahs-bilimni chuqurlashtirish va tekshirishning asosiy usuli bo'lgan. Zamonaviy raqamli platformalar-ijtimoiy o'rganish muhitlari, onlayn munozaralar va hamkorlikdagi loyihalar-bu an'ananing raqamli ko'rinishi sifatida qaralishi mumkin. Masalan, Wiki-asosli loyihalar, peer review tizimi va onlayn forum muhokamalarida o'zbek madrasalarida ustoz oldida bo'lgan jamoaviy bahs-munozara ruhi seziladi.

Uchinchi muvofiqlik-amaliy bilim tamoyili. Ibn Sino va Al-Forobiy asarlarida bilim faqat nazariy emas, balki amaliy qo'llanilishi kerak, deb ta'kidlangan. «Bilgan bilmagan bilan barobar emas» emas-«bilgan va amalda qo'llagan» bilimlidir. Zamonaviy raqamli ta'limning loyiha-asosli o'rganish (Project-Based Learning), muammoga asoslangan o'qitish (Problem-Based Learning) va simulyatsiya texnologiyalari ham aynan shu amaliy bilim tamoyilini yoqlaydi. Bu jihatdan o'zbek milliy pedagogikasi va zamonaviy raqamli modellar orasida chuqur epistemologik muvofiqlik mavjud.

Ziddiyat nuqtalariga chuqur qaralsa, o'zbek milliy ta'lim an'analari va raqamli ta'lim modellari o'rtasida bir qator tubdan ziddiyatlar ham mavjud. Birinchi ziddiyat-munosabat tabiati. Ustoz-shogird munosabati shaxsiy, uzoq muddatli va ma'naviy-axloqiy asosga ega. Ustoz shogirdning nafaqat bilimini, balki xulqini, niyatini va ichki dunyosini biladi. Raqamli ta'lim modellari esa ko'pincha anonimlashtirilgan, qisqa muddatli va asosan kontent uzatishga yo'naltirilgan munosabat shaklini taqdim etadi. Platformadagi o'qituvchi minglab o'quvchilar bilan bir vaqtda «muloqot» qiladi-bu holat ustoz-shogird munosabatining individual va chuqur tabiatiga zid.

Ikkinchi ziddiyat-bilim tezligi va chuqurligi. O'zbek pedagogikasida bilim asta-sekin, sabr bilan va chuqurlik bilan egallash ustuvor ko'rilgan. «Shoshilgan shaytondan» degan maqol bu falsafani ifoda etadi. Raqamli ta'lim modellari esa tezlikni, qulaylikni va «microlearning»-qisqa, ixcham va darhol qo'llaniladigan bilim-

ni qadriyat sifatida taqdim etadi. Bu ikki falsafaning ziddiyati amalda namoyon bo'ladi: o'quvchi YouTube da 10 daqiqalik video ko'rib, mavzuni «o'rgandim» deb hisoblashi mumkin-lekin bu chuqur va uzoq muddatli bilim emas.

Uchinchi ziddiyat-bilimning ma'naviy o'lchami. O'zbek milliy pedagogikasida bilim hech qachon axloqdan ajralmas. Ilm nafaqat dunyoviy farovonlik uchun, balki ma'naviy yuksalish, jamiyat va Yaratganga xizmat uchun egallangan. Raqamli ta'lim modellari esa asosan funksional va utilitar-bilim «nima uchun kerak?» savoliga «karera va iqtisodiy foyda uchun» deb javob beradi. Bu fundamental qadriyat ziddiyati raqamli ta'limni milliy an'analar bilan to'liq uyg'unlashtirishning eng murakkab jihatlaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchi ziddiyat-individuallashtirish va jamoaviylik. Zamonaviy raqamli ta'limning shaxsiylashtirilgan o'quv yo'li kontseptsiyasi har bir o'quvchini alohida traektoriya bo'yicha o'qitishni maqsad qiladi. Bu g'arb individualizmining ta'lim sohasidagi ifodasidir. O'zbek milliy pedagogikasida esa bilim jamoaviy muhitda, birgalikda va bir-biridan o'rganish orqali egallangan. Jamoaviy o'rganish nafaqat samarali usul, balki axloqiy qadriyat: sen o'rgandingmi? Yoningizdagi ham o'rgansinmi!

Integratsion model: milliy an'analar va raqamli imkoniyatlarning sintezi tahlil qilingan muvofiqlik va ziddiyat nuqtalari asosida milliy an'analar va raqamli ta'lim modellarining sinteziga yo'naltirilgan integratsion model taklif etiladi. Bu model uch asosiy tamoyilga asoslanadi.

Birinchi tamoyil-epistemik ustuvorlik tamoyili. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga kiritilganda, ularning epistemologik oqibatlari oldindan tahlil qilinishi kerak. Ya'ni har bir yangi texnologik vosita joriy etilishidan oldin «bu vosita bilimning qanday tushunilishiga ta'sir qiladi?», «u milliy epistemik qadriyatlar bilan muvofiqmi?» degan savollar berilishi zarur. Bu tamoyil texnologiyani maqsad emas, vosita sifatida ko'rishning nazariy asosini tashkil etadi.

Ikkinchi tamoyil-madaniy moslashtirish tamoyili. Raqamli ta'lim modellari va platformalari ko'pincha G'arb madaniy kontekstida yaratilgan. Ularni O'zbekiston kontekstiga kiritishda faqat tarjima emas, balki madaniy moslashtirish zarur. Bu ustoz-shogird munosabatining raqamli formatda qanday saqlanishi, jamoaviy

o'rganish elementlarining qanday kiritilishi va bilimning axloqiy o'lchamining raqamli muhitda qanday ta'minlanishini o'z ichiga oladi.

Uchinchi tamoyil-ikki tomonlama boyitish tamoyili. Integratsiya bir tomonlama emas-ikki tomonlama boyitish jarayoni bo'lishi kerak. Raqamli ta'lim milliy an'analarni yangi imkoniyatlar bilan boyitishi bilan birga, milliy an'analar ham raqamli ta'limning ma'naviy-axloqiy asosini mustahkamlashi zarur. Bu «raqamli o'zbek pedagogikasi»-global texnologiyalar asosida, lekin milliy qadriyatlar ruhida qurilgan ta'lim modeli-ning yaratilishiga olib keladi.

Integratsion modelning amaliy ko'rinishlari Integratsion modelning birinchi amaliy ko'rinishi-raqamli ustozlik (digital mentorship). Ustoz-shogird munosabatini raqamli muhitda saqlab qolish uchun shaxsiy onlayn mentorlik tizimini joriy etish tavsiya etiladi. An'anaviy massaviy onlayn kurslardan farqli o'laroq, bu tizimda har bir talaba o'zining shaxsiy mentori bilan uzoq muddatli va chuqur munosabat qurishga yo'naltiriladi. Videomurojaatlar, shaxsiy loyihalar va muntazam refleksiya suhbatlari bu munosabatning asosiy shakllarini tashkil etadi.

Ikkinchi amaliy ko'rinish-raqamli jamoaviy o'rganish muhiti. O'zbek pedagogikasidagi munozara an'anasini raqamli formatga ko'chirish uchun maxsus platformalar va metodlar ishlab chiqish zarur. Bu talabalarga faqat kontent iste'mol qilish emas, balki birgalikda tahlil qilish, bahs yuritish va bilim yaratish imkonini beradi. Bunday muhit an'anaviy madrasalardagi jamoaviy o'rganish ruhini raqamli davrda davom ettiradi.

Uchinchi amaliy ko'rinish-milliy kontentni raqamlashtirish. O'zbek pedagogik merosini-Al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniyning ta'limiy g'oyalarini-raqamli formatda taqdim etish va zamonaviy muammolar bilan bog'lash. Bu nafaqat milliy merosni saqlab qolish, balki uning zamonaviy ta'limda jonlantirilishidir. Raqamli arxivlar, interaktiv tarixiy simulyatsiyalar va milliy pedagogik meros bo'yicha onlayn kurslar bu yo'nalishdagi dastlabki qadamlar bo'lishi mumkin.

XULOSA

Ushbu tadqiqot o'zbek milliy ta'lim an'analari va raqamli ta'lim modellari o'rtasidagi munosabat ziddiyatli bo'lishi bilan birga, to'g'ri yondashuv bilan sinergiya hosil qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Asrlar davomida shakllangan milliy pedagogik

qadriyatlar-ustoz-shogird munosabatining ma'naviy-axloqiy mazmuni, og'zaki bilim uzatish an'anasi, jamoaviy o'rganish madaniyati-raqamli muhitda yo'qolishi shart emas. Aksincha, ular raqamli ta'limning sifatini va ma'naviy asosini boyitishi mumkin.

Taklif etilgan integratsion model uch tamoyilga asoslanadi: epistemik ustuvorlik, madaniy moslashtirish va ikki tomonlama boyitish. Bu model O'zbekiston oliy ta'limida raqamli transformatsiyani milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda amalga oshirishning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Keyingi tadqiqotlar uchun tavsiyalar: (1) integratsion modelni empirik jihatdan sinab ko'rish va oliy ta'lim muassasalarida amaliy tatbiq etish; (2) o'zbek pedagogik merosi va zamonaviy raqamli pedagogika o'rtasidagi aloqalarni yanada chuqurroq tahlil qilish; (3) O'rta Osiyo mamlakatlari tajribasini qiyosiy o'rganib, mintaqaviy raqamli pedagogika modeli ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Forobiy. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
2. Ibn Sino. (2005). Tib qonunlari (1-kitob). Toshkent: Fan.
3. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3-10.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
5. Freire, P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed*. New York: Herder and Herder.
6. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. London: Bloomsbury Academic.
7. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. In *Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences*.
8. UNESCO. (2021). *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. Paris: UNESCO Publishing.
9. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
10. Feenberg, A. (1991). *Critical Theory of Technology*. New York: Oxford University Press.
11. Yusupov, E. (2018). *Ta'lim falsafasi: nazariy va amaliy asoslar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
12. Tolipov, O'. Q. (2020). *Pedtexnologiyalar va ta'lim sifati*. Toshkent: O'zbekiston.
13. Azizxo'jayev, N. N. (2018). *O'zbekiston ta'lim tizimida metodologik muammolar*. Toshkent: Fan nashriyoti.



14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni «Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida». Toshkent, 2022.
15. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society (2nd ed.). Oxford: Wiley-Blackwell.